

OLIY TA'LIMDA IXTISOSLIK MODULLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Saypillayeva Hilola Barot qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Pochta manzili: hsaypillayeva@mail.ru

+998507730775

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14235311>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning metodik modeli modullarni o'qitish jarayoni mexanizmlari refleksiv (qayta aloqaga va o'z-o'zini baholashga yo'naltirilgan) metodlar va axborot muhiti talablari (ma'lumotlarni izlash, toplash, qayta ishlash, manzilli qo'llash)ning o'zaro integrativ muvofiqlashuvi orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning motivasion, faoliyatli va monitoring bosqichlari mazmuni kabi dolzarb masalalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Ixtisoslik modullari, innovatsion klaster, o'qitish tamoyillari, pedagogik texnologiyalar, didaktik qonuniyatlar, modulli ta'lim, modulli texnologiyalar.

Абстрактный. В данной статье рассмотрены методическая модель организации самостоятельной деятельности студентов, механизмы модульного процесса обучения, рефлексивные (обратная связь и самооценка) методы и требования информационной среды (поиск, сбор, обработка данных, адресуемые через взаимную интегративной координации деятельности образовательных учреждений, освещены такие актуальные вопросы, как содержание мотивационного, активного и контрольного этапов подготовки их к профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Модули специализации, инновационный кластер, принципы обучения, педагогические технологии, дидактические правила, модульное образование, модульные технологии.

Abstract. In this article, the methodical model of organizing students' independent activities, the mechanisms of the module teaching process, reflexive (feedback and self-assessment) methods and the requirements of the information environment (data search, collection, processing, addressable through the mutual integrative coordination of the educational institutions, relevant issues such as the content of the motivational, active and monitoring stages of preparing them for professional activity have been highlighted.

Keywords. Specialization modules, innovation cluster, teaching principles, pedagogical technologies, didactic rules, modular education, modular technologies.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, aholini yangi ish o'rirlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash kabi bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan[1.1]. Shuningdek, taraqqiyotlar strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish nazarda tutilgan. Belgilangan vazifalar va yo'nalishlarda adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bosh me'zon hisoblanadi. Shu ma'noda sohaning yetakchi olimlari va jamoatchilik vakillari bilan birga tizimli

muammolarni muhokama qilgan holda, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish masalasi ham 2026-yilga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan muhim ishlardandir. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabrida PF-5847 "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmondaa "O'zbekiston Respublikasidagi kamida 10 ta oliy ta'lif muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 talikdagi oliy ta'lif muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi[1].

Shu ma'noda yoshlarning ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan hamda ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarashni umummilliy harakatga aylantirish borasidagi olib boriladigan ishlar ham nechog'liq muhimligini izohlashga hojat yo'q. Zero, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovation uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish strategiyaning natijadorligini ta'minlaydi. Belgilangan «Mahalla — tuman — viloyat — respublika» prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirishning oliy ta'lif muassasalari misolidagi inkosi "bola-o'quvchi-talaba-mutaxassis" yoki "oila-bog'cha-maktab – OTM – ishlab chiqarish" tamoyilida namoyon bo'ladi. Aynan mana shu integratsiya pedagogik ta'lif innovation klasterining asosiy tamoyillaridan hisoblanib, so'nggi besh yillik islohotlari natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi, degan fikrni asoslaydi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy asoslar oliy ta'lif tizimi jarayonida ixtisoslik modullarini o'qitish samaradorligini oshirishning me'yoriy-nazariy asoslari sifatida ta'lif yo'nalishlari ixtisoslik modullarini o'qitishning tashkiliy-metodik aspektlarini pedagogik jihatdan ilmiy tadqiq qilish zaruratini belgilaydi. Shunday qilib, kasbiy ta'limning nazariy asoslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiy tendensiyalari, g'oyalari, umumlashmalari va xulosalari, bilishning falsafiy nazariyasi, inson (kasbiy) faoliyati nazariyasi, shaxs rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot tendensiyalari, kasbiy ta'limning rivojlanish istiqbollaridan iborat.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitish uning mazmun tuzilishigina emas, balki uning tashkiliy tomonini ham o'z ichiga oladi. Pyedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning amaliy va ilmiy ahamiyati, ixtisoslik modullarini o'qitish tamoyillarini pegagogik muammo sifatida o'rganish bugungi kunda jamiyatimizda ta'lif muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifati bilan mehnat bozori talablari o'rtasida nomuvofiqlik shuningdek, kasb-hunar ta'limining o'quv-ishlab chiqarish tarmog'i sifati, sharoit va imkoniyatlari hamda ulardan maqbul foydalanish, bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish, malakali ishchi va mutaxassislarni tayyorlash masalalari dolzarb hisoblanadi[2.72].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyotlar strategiyasining 42-maqсадida, 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etishdan iborat bo'lib, Milliy o'quv dasturiga asosan shu davrda 699 nomdagi, yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish

belgilab qo'yilgan. Shular qatoriga dastur bo'yicha yangi metodikalar asosidagi 769 ta videodars yaratishni ham kiritish mumkin[1].

Malakali mutaxassislarni tayyorlashga yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, kasblar va mutaxassisliklarni ishlab chiqarish tuzilmalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qayta yo'naltirish, ta'lim mazmunini o'zgartirishni va o'qitishga innovasion yondashuvlarni joriy etish zamon talabidir. Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning pedagogik muammolari Sh.R.Axliddinov, U.Sh.Begimqulov, R.H.Jo'rayev va boshqa tomonidan tadqiq etilgan.

Uzluksiz ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari V.P.Bespalko, M.V.Klarin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan. Tahlillarga ko'ra, ko'plab tadqiqot materiallari zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ta'lim jarayonini tashkil etishning amaliy va nazariy jihatlari ishlab chiqilgan bo'lib, uning o'zagi, davlat ta'lim standartini amalga oshirish va shaxsiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni belgilaydigan o'quv texnologiyalari hisoblanadi[4.87].

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, axborot va kompyuter inqilobi, bilim va g'oyalalar sanoatining shakllanishi, yangi texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy inqiroz ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Kasbiy tayyorgarlikning maqsadlari tobora ko'proq faoliyatga yo'naltirilganligi, moslashish qobiliyati va nafaqat insonning kasbiy xususiyatlarini, balki uning turmush tarzini, madaniyat darajasini va intellektual rivojlanishini belgilaydigan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Demak, pedagogik texnologiyalar nafaqat ixtisoslashtirilgan fanlar bo'yicha bilimlarni egallashga, balki talabalarning shaxsiy sifatlari kompleksini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy ilm-fanning talablari, tendensiyasiga ko'ra, talaba shaxsi, kognitiv va ehtiyoj sohalarining rivojlanishi ta'lim faoliyati jarayonida sodir bo'ladi.

Kasbiy ta'limning nazariy asoslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiy tendensiyalari, g'oyalari, umumlashmalari va xulosalari, bilishning falsafiy nazariyasi, inson (kasbiy) faoliyati nazariyasi, shaxs rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot tamoyillari hamda kasbiy pedagogik ta'limning rivojlanish istiqbollaridan iborat. Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modularini o'qitishning strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: yangi pedagogik tizimning falsafiy shartlarini aniqlash; tarixiy- ijtimoiy, texnik va texnologik, pedagogik-psixologik jihatlarni qamrab olgan ushbu tizimning ishlash qonuniyatlarini va tamoyillarini ishlab chiqish; yangi ta'lim tashkilotini loyihalash, sinovdan o'tkazish va joriy etish va boshqalar.

Ma'lumki, pedagogika va psixologiya fanlari o'zining predmeti va qonuniyatlarini hamda taraqqiyot tamoyillarini belgilash uchun: sotsiologiya, gnoseologiya, mantiq, kibernetika, fiziologiya, texnika va texnologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalananadi. Didaktik qonuniyatlarining o'ziga xosligi shundaki, ular fan, texnika, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtaсидаги barqaror bog'liqlikni aks ettiradi. Mahalliy va xorijiy olimlar asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogika va psixologiya o'zining an'anaviy shaklida asta-sekin o'zgarib, zamonaviy o'qitish texnologiyalari bilan almashtiriladi[3.12].

Pedagogik ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga tadbiq etish uchun ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini, kasb-hunar pedagogikasini fan sifatida va yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni aniqlashdan iborat. Mahalliy va xorijiy amaliyot blok-modullarda nazariy materialni o'rganish, o'quv faoliyatini

algoritmlashtirish, bilish davrlarining to'liqligi va izchilligi bilan tavsiflangan modulli o'qitish istiqbollarini ko'rsatadi. Modulli ta'lif zamonaviy pedagogik innovatsiyalardan biri hisoblanadi va shu bois, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning tashkiliy-metodik aspektlarini ko'rib chiqish va imkoniyatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Avvalo, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning amaliy va ilmiy ahamiyati xususida fikr yuritadigan bo'lsak, modulli texnologiya ta'limning yangi yondashuvlari va odatiy dars paydo bo'lganidan beri to'plangan an'analarni birlashtirishi, ushbu texnologiyalar samarasi esa, asta-sekin sezilishi va uni o'zlashtirish bosqichlarida talabalar uchun qulaylik yaratishini alohida ta'kidlash joiz. Modulli texnologiya talabalar orasida ortiqcha tushunmovchilik, vahimalarning oldini oladi, chunki doimiy va muttasil ravishda talablarning vazifalarni bajarilishida fikrlash, rejalahtirish va ta'lif jarayonining holati haqida ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Texnologiya o'quv faoliyatini shunday tashkil etishni nazarda tutadi, unda talabaning o'zi ta'lif mazmuni bilan ishlaydi, bu, albatta, materialni yanada mustahkam va ongi ravishda o'zlashtirishga olib keladi. Shu ma'noda ta'lif texnologiyalarini pedagogik nazariya va amaliyotda to'plangan narsalarni birlashtiruvchi, talaba faoliyati, g'oyasi va uning aniq mantiqiy harakatlari jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish asosida uzluksiz rivojlanishni ta'minlaydi hamda o'quv-bilish faoliyatining individual sur'atini modellashtiruvchi ta'lif nazariyasining ta'siridir, degan xulosaga kelish mumkin. Modulli texnologiya rivojlanuvchi ta'lif nazariyasi bilan faoliyatning indikativ asosi - aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi g'oyasi bilan bog'liq. U o'z-o'zini rivojlantirishning keng doirasiga egaligi bilan doimo rivojlanayotgan tizim energiyasini o'z ichiga oladi hamda muqarrar ravishda o'qituvchi va talabalar uchun kompetensianing oshirishga olib keladi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning mazmun tuzilishigina emas, balki uning tashkiliy tomonini ham o'rganish muhim hisoblanadi. Shuningdek, modul va umuman modulning ta'lif elementlari mazmuniga qurilishining asosiy tamoyillari, taxminiy dars jadvalidan foydalangan holda talabalar va o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish strategiyalari ham o'qituvchi uchun shubhasiz foyda keltiradi.

P.A.Yusyavichenening "Modulli o'qitish nazariyasi va amaliyoti" monografiyasi, M.A.Choshanovning muammoli modulli ta'lifning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlashga asoslangan ishlarida muammoli modulli ta'lif texnologiyasini qurishning dastlabki uslubiy pozisiyasi hamda fundamental tizimlarning umumiyligi nazariyasi o'rjanilgan. Insonning psixik faoliyatining turli belgilar tizimlari (lingvistik, ramziy, grafik va boshqalar) bilan ifodalangan funksional tizimlari negizida tizimni kvantlash, masalalarni yechish va modullilik tamoyillari yotadi[3.13].

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitish tamoyillari umumiy pedagogik va didaktik adabiyotlarda keng muhokama qilinadi. Masalan, V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra, ushbu texnologiyaning eng murakkab jihat - maqsadni belgilash bo'lib, uning asosiy vazifikasi o'rgatish ya'ni, diagnostik, faoliyat maqsadini qo'yish va unga erishish darajasini tekshirishdan iborat. Maqsadni to'g'ri belgilash ustuvorligi masalalari M.V.Klarinining asarlarida ham o'rganib chiqilgan.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishda bir qator asosiy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- malakali mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan talab va o'quv jarayonida ta'lif siyosatini tashkil etishning eski shakllaridagi imkoniyatlari o'rtasida;
- talaba shaxsining kasbiy rivojlanishini ta'minlash zarurati bilan maxsus fanlar bo'yicha o'quv jarayonining nisbatan tor, asosan texnologik yo'naltirilganligi o'rtasida;
- pedagogika fani va tajribasida to'plangan pedagogik texnologiyalarning salmoqli miqdori bilan ularning kasbiy ta'lif amaliyotiga yetarlicha kirib kelmaganligi o'rtasida;
- ta'lif muassasalarida talabalarga yo'naltirilgan ta'limga o'tish amaliyotining ehtiyojlari va ta'lif dasturi hujjatlarida ushbu komponentning zaif rivojlanganligi o'rtasida;
- maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati va bunday maqsadli yo'naltirilgan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarning yo'qligi o'rtasida.

Bu qarama-qarshiliklar, ayniqsa, pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitish imkonini beradigan ta'lif jarayonini shunday tashkil etishga o'tish bosqichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Barcha qayd etilgan qarama-qarshiliklar pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning tashkiliy-metodik aspektlarini o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi:

- kasbiy malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha zamonaviy talablar asosida pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitishning tashkiliy-metodik maqsadlarini ishlab chiqish;
- fan vositalari orqali Davlat standarti talablarini va talabalar shaxsini rivojlantrish bo'yicha pedagogik faoliyatni hisobga olgan holda maxsus fanlar mazmunini modellashtirishni amalgalash;
- mazmunli va kasbiy darajada o'qitishga motivasion yondashuvni amalga oshirish, talabalarning o'quv jarayonidagi har qanday faoliyatiga motivatsiya berish;
- barcha talabalar tomonidan majburiy o'quv materialini o'zlashtirishni tashkil etish;
- kasbiy, kognitiv va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali talabalarning individual xususiyatlarini aniqlash asosida rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantrishni ta'minlash.

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlash kerakki, bularning barchasi pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarida ixtisoslik modullarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishni ta'minlaydi hamda pedagogika va psixologiya yo'nalishida ixtisoslik modullarini o'qitish sifatini, mehnat bozorida talabalarning harakatchanligi va raqobatbardoshligini oshirish hamda o'quv jarayonida mikroiqlimni o'zgartirish, ya'ni, talabalarning o'qishini davom ettirish va ularning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli farmoni – 2022-yil.
2. H.Saypillayeva. // ILIM hám JÁMIYET Ilimiy-metodikalıq jurnal // oliy ta'lifda ixtisoslik modullarini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari – 2024-yil, №1/2, 72-73 bet.
3. H.Saypillayeva. // American Journal of Interdisciplinary Research and Development // Didactic opportunities of integration in the content of specialty modules – 2024 yil 11-bet.

4. H.Saypillayeva. // KASB-HUNAR TA'LIMI // Ixtisoslik modullarini o'qitishda individual ta'lim tamoyillarining qo'llanilishi – 2024-yil 2-son, 87-bet.

